



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

JISMONIY BARKAMOLLIK – TARBIYA OMILI

Xolmatova Ergashoy Salimjon qizi

Fargʻona davlat universiteti, doktorant

Annotatsiya

Mazkur maqolada bugungi avlodni aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy, estetik ruhda tarbiyalashning eng qulay hamda ixtiyoriy manbalaridan ekanligi pedagogik omil sifatida oʻrganilgan. Maqolada xalq oʻyinlari, jumladan bolalar oʻyinlarining kelib chiqish tarixi va ularning barkamol avlod maʼnaviy-ahloqiy tarbiyasidagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: pedagogik tahlili oʻyin, maʼnaviy, taʼlim-tarbiya, jismoniy tarbiya, aqliy, jismoniy, ruhiy, axloqiy, estetik mehmon-mehmon, bola-bola, toʻptosh, lappak, umuminsoniy tuygʻular.

ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА - ВОСПИТАТЕЛЬНЫЙ ФАКТОР

Холматова Эргашой Салимжон кизи

Ферганский государственный университет, докторантка

Аннотация

В статье исследуется как педагогический фактор, который является одним из самых удобных и добровольных источников воспитания современного поколения в умственном, физическом, духовном, нравственном, эстетическом духе. В статье разработаны проблемы истории возникновения народных, в том числе детских игр, также их значение в процессе духовного и нравственного воспитания.

Ключевые слова: педагогический анализ, игра, духовное, воспитание, физическое воспитание, умственное, физическое, духовное, нравственное, эстетическое, гость-гость, ребенок-ребенок, мяч-камень, лаппак, общечеловеческие чувства.

PHYSICAL TRAINING IS AN EDUCATIONAL FACTOR

Xolmatova Ergashoy Salimjon qizi

Doctoral Student, Fergana State University

Abstract

The article explores how the pedagogical factor, which is one of the most convenient and voluntary sources of education of modern generation in mental, physical, spiritual, moral, aesthetic spirit. In this article it was cleared that the folk games such as: etymological history of children's games and educational importance's of games in the constant educational process.

Keywords: pedagogical analysis, game, spiritual, education, physical education, mental, physical, spiritual, moral, aesthetic, guest-guest, child-child, ball-stone, lappak, universal feelings.

Taʼlim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan asosiy maqsad xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan va texnika hamda texnologiyalarning yutuqlari asosida shaxsning maʼnaviy sifatlarini tarbiyalash va rivojlanirishdan iborat. Chunki ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyati, jamiyatning axloqiy va maʼnaviy takomili koʻp jihatdan shaxsning maʼnaviy-jismoniy tarbiyasiga bogʻliq.

Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs sogʻlom turmush tarziga taʼsir etuvchi omillar va vositalardan biri sifatida xalq oʻyinlarini oʻrganish muhim taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligiga amin boʻldik. Har bir xalqning madaniy-maʼnaviy boyliklari xazinasiga xalq oʻyinlari ham kiradi. Xalq oʻyinlari vujudga kelishi va rivojlanishiga koʻra gʻayrioddiy hodisa emas, balki xalq hayotini obrazli tarzda aks ettiradigan hamda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari bilan belgilanadigan maqsadli faoliyatdir. Xalq oʻyinlari bolalar ongida milliy-maʼnaviy qadriyat sifatida shakllanib, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ushbu yurtning haqiqiy egasi boʻlish tuygʻusini mustahkamlashda, xullas, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim tarbiya vositasi hisoblanadi.

Xalq oʻyinlari xalq ijodiyotining oʻziga xos janri boʻlib, koʻp asrlik tarixga ega. Ularda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichiga xos ijtimoiy voqealar aniq aks etadi [1; №20].

Davlatimizning rivojlanishi va ravnaqi yoshlarning jismoniy, aqliy, maʼnaviy va ruhiy barkamolligi hamda ularning salomatligiga bogʻliqdir. Jismonan sogʻlom, baquvvat, ruhan tetik, aql-

zakovatli yoshlar bilangina mamlakatimizning istiqbolli kelajagini tasavvur qilish mumkin. Yosh avlod tarbiya tizimining tarkibiy qismi sifatida sog'lom turmush tarzi va jismoniy tarbiya ta'limi muhim o'rin egallaydi. Jismoniy va ma'naviy salomatlikni shakllantirish, sog'lom turmush tarziga intilish va sportga mehr-muhabbatni yoshlikdan uyg'otish, bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash borasida yurtimizda muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ammo inson egallagan bilim va malakalarni amalda qo'llashga, o'z hayotida ularga qat'iy rioya qilishga o'rganmas ekan, berilgan bilim va malakalar ko'zlangan natijaga erishish imkonini bermaydi. Sog'lom turmush tarzi — insoniyatning paydo bo'lishi bilan hayotiy ehtiyojga aylangan ma'naviy, jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik haqidagi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining mazmun-mohiyatini chuqur anglagan holda ularga ongli ravishda amal qilish, rejali va maqsadli sog'lom hayot kechirish qoidalariga to'liq rioya etish hamda ularni kundalik ehtiyojga aylantirish tafakkuri va amaliyotidir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq o'yinlarining tadrijiy rivojlanishini hamda shu o'yinlardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda xalq o'yinlarining har bir turining o'ziga xos jihatlari alohida e'tibor berish lozim. O'yinlar xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqea va hodisalarni obrazli aks ettirgan. Ular hayotiy taassurotlar, kuzatishlar, tajriba va hissiyotlarni gavdalandirib, o'zida musiqa hamda raqs shakllarini ham mujassamlashtirgan. Ma'naviy merosning qadimiy qatlamiga xos milliy qadriyatlar tizimida xalq o'yinlari markaziy o'rin tutadi.

Xalqlarning uzoq davrlardan buyon saqlanib kelayotgan o'yinlari ular hayotining ajralmas bir bo'lakiga aylangan. O'yinlarda xalqning xohish-istaklari, o'tmishi va turmush tarzi namoyon bo'ladi. Xalq o'yinlari boshqa urf-odat va an'analar singari uzoq tarixga ega. Bu o'yin va musobaqalarning ayrimlari turli ta'sirlar natijasida modernizatsiyalashgan bo'lsa, ayrimlari o'zining lokal xususiyatlarini saqlab qolgan. Bu esa xalqning ijtimoiy-psixologik holatidan kelib chiqib, quvnoqlik, xushchaqchaqlik, to'y va bayramlarga ishtiyoqning kuchliligi, tadbir o'tkazishga moyillik kabi komponentlarning yetakchiligidan dalolat beradi. Go'daklik, bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlaridagi turli o'yinlar o'ziga xos tarzdagi ixtiyoriy faoliyat turlari hisoblanib, obyektiv ravishda tarbiyaviy, axloqiy va ijtimoiy-estetik funksiyalarni bajaradi [2; 28-b.].

Jumladan, "Xola-xola" o'yini bolalarni yoshlik chog'idanoq mehmon kutish va kuzatish, dasturxon tuzash odobiga oid ko'nikmalar hamda ijobiy xislatlarning shakllanishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda muhim bosqich vazifasini o'taydi. Shuningdek, u bolaning jamoa ichida o'zini tutishi va boshqara olishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek xalq o'yinlariga xos xususiyatlarning boyligi ularning xilma-xil tarbiyaviy vazifalarni bajarishini ta'minlaydi. Xalqlarimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bir-birini tushunishga va o'zaro yaqinlashishga intilayotgan hozirgi davrda o'yinlarning hamma uchun tushunarli umumiy tili bolalarning bir-birlarini anglab olishlarida katta yordam beradi. Ularning boshqa millat o'yinlarida ishtirok etishlari baynalmilallik his-tuyg'ularini, turli millat vakillariga hurmat va muhabbatni, boshqa xalqlarning turmushi, madaniyati, an'analari va odatlariga doir bilimlarni shakllantiradi.

Mazkur o'yinlar o'zbek xalqi hayoti va madaniyatini boshqa millatlar hayoti hamda madaniyati bilan taqqoslashga yordam beradi. Bu esa yoshlarning o'z xalqining xususiyatlari, o'ziga xosligi va hissiy jihatlarni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. O'yin mazmunining rivojlanishi bolaning kattalar hayoti va faoliyatining mohiyatiga chuqurroq kirib borishi, atrofda voqealarga munosabatining o'zgarishi, shuningdek, o'yin mazmuni hamda syujetining ijtimoiy shart-sharoit va jamiyat a'zolari turmushini tobora to'g'riroq aks ettirishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun bolalarning o'yin qobiliyatining o'sishi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki kattalarning ta'siri, atrof-muhit bilan tanishtirish, sayrlar uyushtirish, shaxslararo munosabatlarning mohiyatini tushuntirish kabi jarayonlar orqali amalga oshadi.

Xalq o'yinlari zamirida jismoniy va ma'naviy barkamollikni tarbiyalashning samarali usullari jamlangan. O'yinlardagi milliy qadriyatlar, insoniy tuyg'ular, tabiat va insonga muhabbat, ajdodlar an'anasiga sadoqat ularning ma'naviy qudratga ega ekanligini ko'rsatadi. O'yinlar o'z-o'zidan paydo bo'lavermaydi. Ular xalq ijodining mahsuli bo'lib, insonlarning olamda o'z mavqeyi va o'rnini bilishi, go'zal hayot barpo eta olishi xalq o'yinlarining etnografik elementlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Xalq o'yinlari milliy va ma'naviy qadriyatlarni asrab-avaylashning eng an'anaviy tarkibiy qismidir. Bugunga qadar saqlanib qolgan bayram, to'y, sayl, tomoshalardagi o'yinlar ma'naviy va milliy o'zlikka xos jihatlarning tarixiy-genetik asoslari hisoblanadi.

O'yinlar jarayonida bolalardan aql-zakovat, mohirlik, tadbirkorlik, epchillik va chaqqonlik, jasurlik va shijoat, hushyorlik va favqulodda qat'iy qarorga kela olish kabi sifatlar talab qilinadi. Bunday

sifatlar talab etiladigan o'yinlar sirasiga "yashirin-topaloq", "ko'z boylash", "qorovul bola", "zim-ziyo", "ushla-ushla", "bog'bon qorovul" kabilarni kiritish mumkin. Bu sifatlar esa tarbiyaning jismoniy, axloqiy, estetik, ruhiy komponentlarini o'yinlar orqali bolalarga singdirish imkoniyati kengligidan dalolat beradi. O'yinlar orqali komil insonni tarbiyalashning qulayligi shundaki, bolalarni bu jarayonga olib kirishda qiyinchilik tug'dirmaydi, tarbiyaning majburiy usul va vositalari qo'llanilmaydi. Bolalarda u yoki bu o'yinda ishtirok etishda ixtiyoriylik prinsipiga amal qilinadi [3; 34–36-b.]. O'yin orqali o'quvchilarda ma'naviy va jismoniy sifatlar shakllanadi. Shuningdek, bosqichma-bosqich komil inson tarbiyalanadi.

Aslida bolalarning tetapoya qilishlaridagi mohiyat bioasosga tayanadi, ya'ni ulg'ayish, voyaga yetish, o'sib-unish jarayonida bir millatning yosh avlodi bu yo'lni o'ziga xos, boshqalardan farqli ravishda bosib o'tadi. Xalq o'yinlari yoshlarga ham jismonan bardamlik, ham intellektual ozuqa beradi. Jumladan, asosan qizlar o'ynaydigan, hunarmandchilik xo'jaligi rivojlangan hududlarda eng ko'p tarqalgan rang top, lappak, to'p tosh, topishmoq kabi o'yinlar bolalar va qizlarda intellektual salohiyatni oshirishga xizmat qiladi. Asosan bolalarning barkamol bo'lib voyaga yetishlari uchun xizmat qiladigan o'yinlar yosh avlodda, avvalo, millatga bo'lgan hurmatni, ota-bobolardan qolgan boy merosga nisbatan sadoqatni oshiradi.

Bundan tashqari, milliy sport turlari bilan doim hamnafas bo'lgan o'g'il-qizda jamoa bo'lib ishlash malakasi, halollik, mehnatsevarlik, burch va mas'uliyatni his qilish, chaqqonlik, shiddat, tezlik, o'z o'rnida aql bilan ish tutish, aniqlik kabi xususiyatlar shakllanadi. Bolalarcha beg'ubor raqobatga bardosh berishga intilgan o'g'il yoki qiz kelajakda hayot qiyinchiliklarini, albatta, yengib o'tadi. Farg'ona vodiysida bu kabi olijanob va taraqqiyotga chorlovchi fazilatlarini o'zida jamlagan o'yinlar ko'p. Shuningdek, yoshlar xalqimizning an'anaviy xo'jaligidan yaxshigina xabardor bo'lib, mehnat tarbiyasi uchun ham yo'llar ochiladi. Oddiygina berkinmachoq o'yini bolalarda harbiy sohaga ishtiyoq, sezgirlik va chaqqonlik, harakatlarda uyg'unlik va o'yinga xos mutanosiblik jihatlari shakllantiradi. Mazkur o'yinning, umuman, harbiy o'yinlarning — mo'ng'uz-mo'ng'uz, oq so'ngak, oq terakmi-ko'k terak, botir bola, dasta, danak yashirish, yashirin-topaloq, topil-topil, quloq cho'zma, kurash va hokazolarning mustaqillik davrida Vatanning botir va jasur himoyachilari, vatanparvar, yurtparvar, elparvar yurtdoshlarimizni tarbiyalashdagi roli beqiyos.

Tarixga nazar solsak, sobiq sovet jamiyatida xalq an'alarining ajralmas qismi bo'lgan xalq o'yinlarini hayotdan siqib chiqarish siyosati yuritildi. Uning zaminida sovetlarning milliy siyosati, ya'ni umumsovet xalqini shakllantirishga, millatlarni qo'shib yuborishga qaratilgan siyosat, ikkinchidan, qishloq va shaharlardagi xalq o'yingohlarini, adir va maydonlarni yo'qotish, paxta maydonlariga aylantirish siyosati, uchinchidan, an'anaviy xalq o'yinlari o'rniga sovet hokimiyatining buyuk davlatchilik mafkurasiga xizmat qiladigan "kashshoflar" o'yini kabilarni majburan tiqishtirish kabi holatlar keng tarqaldi. Masalan, sovet hokimiyati davrida bolalar ruhiyatiga sun'iy ravishda tiqishtirilgan "urush-urush" o'yini yoshlar tarbiyasida fashizmga emas, nemis xalqiga nisbatan ham nafrat ruhini singdirib bordi. Mazkur o'yinda hech qanday tarbiyaviy ahamiyat elementlari mavjud emas. Holbuki, xalq o'yinlari xalqning aqliy, ruhiy, jismoniy kuch beradigan manbalaridan biri bo'lib, sovet hokimiyati yillarida minglab o'yinlar ichida ayrim musobaqa va o'yinlar: kurash, uloq, qiz quvdi, ot poygasi kabilari saqlanib qoldi. Boshqa o'yinlarning taqiqlanishi xalqning salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni ko'paytirdi va ma'naviy-jismoniy kamolotga to'sqinlik qildi [4; 44-b.].

Lekin bu vaqtda ham xalq o'yinlari orqali yurt farzandlari jasurlik va mardlik tuyg'ularini o'zida mujassamlashtirishga intilib keldi. Ayniqsa, mustaqillik sharoitida an'anaviy o'yinlarning qayta tiklanishi bolalarda yoshlikdan Vatan himoyachisi bo'lish ko'nikma va malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirib bormoqda. Mustaqillik yillarida o'quvchi yoshlar o'rtasida "Umid nihollari", "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida "Universiada" kabi sport o'yinlari ommaviylashib, an'anaviy tus olib bormoqda. Bu sport o'yinlari rivojlanishi natijasida xalq o'yinlarining tarkibi, turlari ko'paydi, ijtimoiy qatlami kengaydi. Shuningdek, ular ommabop tadbirlarga aylandi. Har qanday xalq o'yinlari yakka tartibda o'ynalmaydi. Unda guruh va jamoa ishtirok etadi. O'yin jarayonida jamoaviy harakat va muloqot qoidalari, axloq normalari, o'zaro yordam ko'nikmalari, umuminsoniy qadriyat tamoyillari, ma'naviyat va ruhiyatning tarkibiy qismlari shakllanadi. O'yinlarda shaxslararo munosabat me'yorlari, kattalar tajribasini o'zlashtirish va uni shaxsiy faoliyatda sinab ko'rish ko'nikmalari vujudga keladi. Xalq o'yinlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib borish bilan birga, milliy o'zlikni anglash, urf-odat va an'analarga sodiq qolish jihatlari namoyon qilib boraveradi.

Boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etishning ijobiy natijasi sifatida sportning milliy genofondini yaxshilash, ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, millatning g'ururi va iftixorini ko'tarish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va boshqa talay sohalaridagi ahamiyati

benihoya kattadir. O'zbek milliy kurashining jahonning ko'pgina mamlakatlarida tan olinayotgan ommaviy sport o'yinlari darajasida e'tirof etilishi o'zbek millatining jahon hamjamiyatidagi o'ziga xos o'rning e'tirof etilishi bilan barobar. Hozirga qadar saqlanib kelayotgan bu urf-odatlarimiz yoshlarni mard, jasur, jismoniy sog'lom qilib tarbiyalashdan tashqari, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maktabi vazifasini bajaradi. Chunki kurash bellashuvining o'tkazilish tartibi, g'olib polvonlarni e'zozlash, ularning halol va jismoniy baquvvatligi yoshlarda havas va o'rnatilgan o'qish hissinii uyg'otishiga hech qanday shubha yo'q.

Folklorshunos olim G'. Jahongirovning ta'kidlashicha, "Devonu lug'otit turk" asarida 150 ga yaqin milliy o'yinlar haqida ma'lumot keltirilgan bo'lib, 20 dan ortiq bolalar o'yini tavsif qilingan [5; 68-b.]. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida keltirilgan bolalar o'yinlarini ijro uslubi, vaqti va undagi o'yin ashyolarining turiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Suyak bilan bog'liq o'yinlar. Odatda qo'y oshig'i vositasida o'ynaladigan oshiq otish o'yini haqida ham ma'lumot keltiriladi: "Po'k — o'yinda oshiqning orqasi bilan tushishi. Buni chik-po'k deyiladi" [6; 144-b.].

2. Suv bilan bog'liq o'yinlar. "Monuz-monuz" — mo'nguz-mo'nguz deyilgan bir xil bolalar o'yini. Bu shunday: bolalar tiz cho'kib, dengiz labida, ya'ni suv bo'yida o'tiradilar. Sonlari orasiga ho'l qum solib to'ldiradilar. So'ng qo'llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri — ona boshi "mono'z-mono'z", deydi. Qolganlari "na mono'z?" — "nimaning mo'nguzi?" deb so'raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham takrorlaydilar. So'ng ona boshi shu nomlar orasiga tuya, eshak kabi shoxi yo'q hayvonlarning ismini aytib chalg'itadi. Bolalardan birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon nomini aytib yuborsa, uni suvga itarib yuboriladi [7; 375-b.]. Mahmud Qoshg'ariyga ko'ra, suv bilan bog'liq mo'nguz-mo'nguz o'yinidan tashqari, suvga sho'ng'ishda bahslashish ham bo'lgan [8; 241-b.].

Folklorshunos G'. Jahongirov "mo'nguz-mo'nguz" o'yinini shu kunlarga qadar saqlanib qolgan "qushim boshi" o'yiniga qiyoslaydi. Shuningdek, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida tilga olingan "o'tush-o'tush" o'yinining hozirgi "musht ketdi" o'yiniga o'xshash ekanligini ta'kidlaydi [9; 293-b.].

3. Qiz bolalar o'yinlari. Bolalar o'yinlari orasida qizlarga xos o'yinlar bo'lib, qiz bolalarning sevimli qo'g'irchoq o'yinlari haqida quyidagilar keltiriladi: "Quzurchuq — qo'g'irchoq. Qiz bolalarning odamga o'xshatib yasatib o'ynaydigan o'yinchoqlari" [10; 369–375-b.].

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilgan bolalar o'yinlari o'rta asrlarda keng tarqalgan. Qolaversa, o'yinlar turi bundan ko'proq bo'lganligi ham ehtimoldan xoli emas. Ma'lumki, har bir xalqning kattalar va bolalar o'yinlari kelib chiqishi tarixiy-madaniy muhit hamda tabiiy sharoit bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Har qanday sharoitda ham xalq o'yinlari ko'proq o'sha jamiyatdagi yoshlarni jismoniy jihatdan chiniqtirish, aqliy jihatdan tez fikrlaydigan va topqir bo'lib yetishishlarida katta ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom va ma'nan barkamol avlod tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik ish deb qaralayotgan shu kunlarda an'anaviy xalq o'yinlarini tadqiq etish xalqimiz milliy-etnik qiyofasini aks ettiruvchi o'yinlarning shaxs dunyoqarashi va ruhiy olamida tutgan o'rmini belgilash imkonini beradi. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida gap borar ekan, shuni alohida ta'kidlash lozimki, ular bolalarni halollikka, sahovatga o'rgatadi, kattalar tajribasini bolalar va yoshlarga o'tkazish vositasi sifatida xizmat qiladi. O'g'il va qizlarda mehnatga ongli munosabatni shakllantiradi. Ularning kuchli, chaqqon, serharakat, ziyrak, topqir, o'zaro hamkor bo'lishlariga va ma'naviy tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mahsumov S. Milliy o'yinlar — tarbiya vositasi // Ma'rifat. — 2007. — № 20. — 10 mart.
2. Yo'ldosheva R. O'zbek xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. — Toshkent, 1992. — 28 b.
3. Yo'ldoshev S.V. Bolalar o'yinlarining pedagogik asoslari va metodikasi: o'quv-uslubiy qo'llanma. — Farg'ona, 2020. — B. 24–36.
4. Qoraboyev U. O'zbek xalq o'yinlari. — Toshkent: San'at nashriyoti, 2001. — 44 b.
5. Джахангиров Г. Узбекский детский игровой фольклор // Фольклор, литература и история Востока: материалы III Всесоюзной тюркологической конференции. — Ташкент, 1984. — С. 68.
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. — Toshkent: O'qituvchi, 1978. — 144 b.
7. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. I. — Toshkent, 1963. — 375 b.
8. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. II. — Toshkent, 1963. — 241 b.
9. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. III. — Toshkent, 1963. — 293 b.
10. Abduahadov N., G'oziyev T. Burhoniddin Marg'iloniy: tarixiy haqiqat va asotirlar. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. — B. 365–375.